

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA  
TABIAT TO'G'RSIDA TUSHUNCHA BERISHDA DIDAKTIK  
VOSITALARNING O'RNI**

**Nodirabegim Komilovna Rajabova**

Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti,  
p.f.f.d. (PhD)

**Gulbegim To'ymurodovna Qurbonnazarova**

Osiyo Xalqaro Universiteti Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi II kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida didaktik vositalar orqali o'quvchilarga ekologik tarbiya berish yo'llari, tabiat va atrof-muhitga g'amxo'rlik, o'quvchi yoshlarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish usullari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyatni shakllantirish, ekologik tarbiya, atrof-muhit, ifodali o'qish, barkamol shaxs, didaktik vazifa.

**Аннотация:** В статье показаны методы обеспечения экологического образования учащихся, бережного отношения к природе и окружающей среде, а также методы формирования положительных качеств у учащихся младших классов посредством дидактических средств на уроках начальной грамотности чтения.

**Ключевые слова:** начальное образование, экологическое образование, экологическое образование, формирование культуры, экологическое образование, окружающая среда, выразительное чтение, всесторонняя личность, дидактическая задача

**Abstract:** This article shows the methods of providing ecological education to students, care for nature and environment, and methods of forming positive qualities in young students through didactic tools in elementary reading literacy classes.

**Key words:** primary education, environmental education, environmental education.

formation of culture, environmental education, environment, expressive reading, comprehensive personality, didactic task

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMYI ONLAYN KONFERENSIYA

Insoniyat tug'ilganidan, ilk nafasini olganidanoq tevarak-atrof, uni o'rab turgan olam bilan uzviy bog'lanadi. Bir paytlar Eynshteyn insonni biz koinot deb ataydigan butunning bir qismi ekanligini aytdi. Bu qism ham vaqt, ham makon jihatidan cheklangan. Va inson o'zini alohida narsa sifatida his qilsa, bu o'zini aldashdir. Insonning Yerdagi barcha hayot kabi biosferadan ajralmasligi uning mavjudligini belgilaydi. Odamlarda yaxshi ekologiyaga bo'lgan ehtiyoj oziq-ovqat, turar joy, kiyim-kechak ehtiyojlari bilan birga azaldan shakllangan. Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida ekologik ehtiyojlar xuddi avtomatik tarzda qondirilgan. Insoniyat vakillari bu barcha ne'matlar - suv, havo, tuproq - ularga yetarli miqdorda va har doim ham berilganligiga amin edilar. Ammo resurslar tugab bormoqda. Bizda faqat so'nggi o'n yilliklarda, ekologik inqiroz xavfi birinchi o'ringa chiqqanida sezila boshladi. Bugungi kunda sog'lom muhitni saqlash ovqatlanish yoki ma'naviy ehtiyojlarni qondirish kabi muhim ekanligi ko'pchilik uchun allaqachon ayon bo'lmoqda.<sup>1</sup> Shunday ekan biz insoniyatda «ekologik madaniyat» tushunchasini shakllantirishimiz lozim. Bu uchun avvalo o'sib kelayotgan yosh avlodni shu ruhda tarbiyalash bizning asosiy vazifamizdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish ekologik ta'limsiz amalga oshmaydi. Masalan, sinfda tabiat burchagi yaratildi, u yerda gullarga g'amxo'rlik qilish paytida bolalar gullarni to'g'ri parvarish qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar, har bir gul o'ziga xos go'zalligi va g'amxo'rlikka muhtojligini bilib oladilar. Amaliy faoliyatda bolalarning individual namoyon bo'lishi ularning ekologik tarbiyasi va madaniyati darajasining ko'rsatkichidir. Odatda biz bolalarning e'tiborini gulzorlarga, daraxtlarga, qushlarga, yilning turli vaqtlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlarga qaratamiz. Bolalar o'qituvchi yordamida kunning davomiyligi, ob-havo, o'simliklar va hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar to'g'risida xulosa chiqaradilar. Shuningdek, bolalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun qum, yer, loy, qor, muz, suv xususiyatlari bilan tanishish bo'yicha muhim tajribalar o'tkaziladi. Bunday tajriba asosida biz kuzatilgan hodisaning sababini ochib beramiz, bolalarni mustaqil fikr va xulosalar chiqarishga o'rgatamiz. Bu jarayonda tabiiy materiallar bilan o'yinlar tashkil etiladi. Shuningdek, sayr qilish paytida didaktik o'yinlar o'tkaziladi, masalan: «Mevaga nom bering», «Mavsumlar», «Ta'rifi bo'yicha toping», «Bu sodir bo'lganda» va boshqalar. Shamol bilan ishlaydigan o'yinchoqlar yordamida biz shamol yo'nalishi va uning kuchini aniqlashga harakat qilamiz. Biz o'quvchilarda atrof-muhitga

<sup>1</sup>Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar. Inson va tabiat: o'zaro ta'sir. <https://uz.modern-info.com/13686791-the-relationship-between-man-and-nature-man-and-nature-interaction>

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMYI ONLAYN KONFERENSIYA

ijobiy munosabatni shakllantirishda badiiy adabiyotdan ham samarali foydalanishga harakat qilamiz.<sup>2</sup>

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin.»<sup>3</sup>

Ekologik tarbiya haqida to'xtalishdan oldin bu atamaning izohini ko'rib chiqish zarur. Ekologiya so'zi yunoncha oikos – «vatan, uy» va logos – «fan, ta'limot» ma'nosidagi so'zlardan tashkil topgan bo'lib, birgalikda yashaydigan tirik organizmlarning o'zaro va tevarak-atrofdagi muhit bilan munosabatini, shuningdek, olam va biosfera o'rtasidagi munosabat masalalarini o'rganuvchi fan nomini bildiradi.<sup>4</sup>

Ekologik tarbiya, avvalambor, bolalarni insonparvarlik, xayrixohlik, hissiy munosabat va ularning atrofidagi dunyoga qiziqishini tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, atrof-muhitni bolaga ta'siri juda katta. Chunki har kuni bolalar u yoki bu shaklda atrof-muhitdagi turli narsalar yoki hodisalar bilan aloqaga kirishadilar ya'ni ular qushlarni, hasharotlarni, hayvonlarni, qishda, qor parchalarini, kuzda, sarg'aygan barglarni, yomg'irni kuzatishadi, tabiat haqidagi she'rlar va hikoyalarni tinglashadi. Va tabiat hodisalari, o'simliklarga g'amxo'rlik qilishni o'rganadilar. Tabiat bolalarni birinchi navbatda o'zining go'zalligi, ranglarining yorqinligi, xilma-xilligi bilan o'ziga jalb qiladi. Shu boisdan «Ekologik tarbiya maktabgacha yoshda, maktab davrida, maktabdan keyingi, mahalla, mehnat jamoasi hamda keksalik davrida turlicha mazmun, shakl va metodlar hamda yondashuvlarda amalga oshiriladi»<sup>5</sup>.

N.J.Isakulova «Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishda variativ didaktik funksiyalarni quyidagilardan iborat ekanligini alohida qayd etadi:

<sup>2</sup>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari. [https://www.oriens.uz/media/journalarticles/29\\_Bovanova\\_Umida\\_Abduvahabovna\\_220-229.pdf](https://www.oriens.uz/media/journalarticles/29_Bovanova_Umida_Abduvahabovna_220-229.pdf)

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: O'zbekiston, NMIU, 2018. – B. 570.

<sup>4</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati, 5 jildli. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B.25

<sup>5</sup> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari. [https://www.oriens.uz/media/journalarticles/29\\_Bovanova\\_Umida\\_Abduvahabovna\\_220-229.pdf](https://www.oriens.uz/media/journalarticles/29_Bovanova_Umida_Abduvahabovna_220-229.pdf)

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

- ekologik mazmunda mashq bajarish, masalalar yechish, diktant va bayonlar yozishda qo‘shimcha topshiriqlardan foydalanish;
- ekologik mazmundagi darslarni fanlararo bog‘lanishda turli uslublarning bir nechtasidan foydalangan holda tashkil etish;
- darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘quvchining turli qiziqishlari asosida turli usublardan foydalanib olib borish;
- ekologik mazmundagi testlarni o‘tkazishda mazmunning bir xilligiga e‘tibor bergan holda savol-javoblar xilma-xilligiga erishish;
- fanlararo ekologik tarbiya berish yuzasidan o‘quvchi bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholash xilma-xilligini inobatga olish.

Mazkur variativ didaktik funksiyalarning har biri bajarilishida bir vaqtning o‘zida har xillikka erishishga e‘tibor beriladi»<sup>6</sup> degan edi. 4-sinf o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra o‘quv predmetlari orasida alohida ajralib turadi. Yosh avlodga ta‘lim-tarbiya asoslarini puxta o‘rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish boshlang‘ich sinflardagi o‘qish darslarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. O‘qish darslarining tarbiyaviy vazifalardan biri-o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ona-tabiatga mehr-muhabbatni uyg‘otish ham hisoblanadi. Ekologik tarbiya deganda, asosan, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllanishi ko‘zda tutiladi. Barkamol insonning muhim fazilatlaridan biri uning ekologik madaniyatidir. Ekologik madaniyatga ega shaxs barcha tirik mavjudodlarning yashash sharoiti, muhiti qonun-qoidalarini puxta biladi, tabiat muvozanatini saqlashga hissa qo‘shadi, u atrof-muhitga nisbatan beparvo bo‘lmaydi, aksincha uni yaxshilashga, sog‘lomlashtirishga harakat qiladi. Ekologik madaniyat tushunchasi ham keng qamrovli bo‘lib, inson faoliyatining aksariyat qismini o‘zida mujassamlashtiradi. Ekologik madaniyatda ham insonparvarlik, axloqiy-ma‘naviy xislatlar o‘z aksini topadi. Insonparvarlik esa ma‘lum ma‘noda insonlarning ichki his-tuyg‘usining ma‘lum bir qismini tashkil etuvchi asosiy dunyoqarashdir. Bu dunyoqarashning tarkibiy qismida ekologik madaniyat yotadi. Ekologik madaniyatda insonning ekologik etikasi, axloqiy va diniy xislatlari ham shakllanadi. Ana shu etik nuqtai-nazardan yondashganda tabiat umumiy uy ekanligi, insoniyat faoliyatiga taalluqli ekanligi unutilmaydi. Mana shu masalalarga boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida diqqat qaratish muhim va

<sup>6</sup> Isakulova N.J. Uzluksiz ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. – Toshkent.: 2012. – B.17.



## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMYI ONLAYN KONFERENSIYA

dolzarb sanaladi. Zero, o'quvchilarni tabiat bilan yaqindan tanishtirish, sodir bo'layotgan turli xil ekologik hodisalarga munosabat bildira olish salohiyatini tarbiyalash bugungi kunda boshlang'ich sinflardagi ekologik ta'limni juda muhim yo'nalishga aylantirmoqda. Binobarin, o'quvchilarning ekologik ta'limida tabiiy-ilmiy bilimlarni egallashda eng muhim bosqich boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Insonning tabiatga kelajakdagi munosabati shu davrdan boshlanadi.<sup>7</sup>

Ekologik ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion yondashuv tizimi joriy etilsa, insoniyat tabiat, atrof-muhit va kosmos bilan obyektiv zarur darajadagi aloqadorlikka erishishi va o'zaro uyg'unlikni shakllantirishi mumkin. Tabiat bilan uyg'un yashash, inson uning bir bo'lagi, degan tushuncha va gumanistik g'oyalarni singdiruvchi ta'limning dasturiy tizimi bugungi kunda o'zini oqlamayotgandek, nazarimizda. Shunday davrlar ham bo'ldiki, insonlar ongida tabiat bitmas-tuganmas resurs manbai sifatida qaraldi. Tabiiy resurslar haqidagi noto'g'ri tushunchalarning paydo bo'lganligi, tugab-bitmas manba degan yondashuvning ustunlik qilishi va tabiiy elementlarning odamga xayolan bo'ysundirishga bo'lgan intilishning hali ham barham topmaganligi ekologik muvozanatni buzishga, ekotizimlarni yo'q qilishga asos bo'lib qolmoqda. Sharq tafakkuri hamda dunyoqarashidagi tafovutlarning shakllanishi kishilik sivilizatsiyasi taraqqiyotiga borib taqaladi va ularning bir-biriga zidligi haqida mulohaza yuritish mumkin.<sup>8</sup> Boshlang'ich sinflar o'qish darslari o'rganiladigan asarlar quyidagi doirada tuzilgan: asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat, ona tabiat, yil fasllari, xalq ogzaki ijodi va mehnatga muhabbat. Ushbu mavzular doirasida esa turli didaktik vositalardan foydalangan holda darslarni samarali hamda eng yuqori sifat bosqichiga olib chiqish o'qish darslarining asosiy vazifasidir. Bunda izohli o'qish, ifodali o'qish, ijodiy qism, reproduktiv metod, izlanish metodlaridan foydalanish darslarni qiziqarli va tushunarli bo'lishiga imkon yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslari oldiga qo'yilgan quyidagi didaktik vazifalar mavjud:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini shakllantirish;
2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish;

<sup>7</sup> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari. [https://www.oriens.uz/media/journalarticles/29\\_Bovanova\\_Umida\\_Abduvahabovna\\_220-229.pdf](https://www.oriens.uz/media/journalarticles/29_Bovanova_Umida_Abduvahabovna_220-229.pdf)

<sup>8</sup> Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish. <https://inlibrary.uz/index.php/development-science-education/article/view/18107>

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi, ona tabiat haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish;
4. O'quvchilarning hayot olamini boyitish va b.q

Birgina 3-sinf o'qish savodxonligi II qismini oladigan bo'lsak, undagi III bo'lim mavzulari tabiat, atrof-muhitga oid mavzular, geografik terminlarni o'z ichiga olgan. «Yurtim madhi», «Yurtim bo'ylab sayohat», « Orzu yo'li», « Orol», «Qashqadaryo» kabi mavzular orqali yurtimizning boy tarixi, betakror madaniyati, tabiati, berilgan joy va u to'g'risida axborotga ega bo'libgina qolmay, tasavvurlari ham kengayadi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish juda ham murakkab jarayon hisoblanadi. Bu, bir tomondan, rasmiy mantiqning qat'iy doirasiga mos kelmasligi bilan bog'liq. Boshqa tomondan, bola doimo kattalar tabiat hodisalari, narsalarga nisbatan elementar normalar va xatti-harakatlar qoidalarini qanday buzayotganini ko'radi: daraxt shoxlarini sindirish, axlatlarni dam olish joylarida qoldirish shular jumlasidandir. Bunday hollarda, agar bola bunga e'tibor bergan bo'lsa, siz unga kattalar noto'g'ri ish qilayotganini o'z vaqtida aytishingiz kerak bo'ladi. Inson tabiat boyliklaridan oqilona va ehtiyotkorlik bilan foydalanishi kerak, shundagina tabiat ham insonni saxiylik bilan mukofotlaydi. Shu boisdan ham bolaning ekologik madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan barcha harakatlar kattalarni befarq qoldirmasligi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: O'zbekiston, NMIU, 2018. – B. 570.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati, 5 jildli. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B.25
3. Isakulova N.J. Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. – Toshkent.: 2012. – B.17.
4. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darsliklar. U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova- Toshkent, “Novda Edutainment”, 2023.
5. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darsliklar. U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova- Toshkent, “Novda Edutainment”, 2023. B.54-74.